

**INVESTITSIYA LOYIHALARINI SINDIKATLASHGAN KREDITLAR ORQALI
MOLIYALASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOTNI REAL SEKTORI RIVOJIGA
TA'SIRI VA TAMOYILLARI**

Odilova Ozoda Shodiyor qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali.

+998330003107.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14066319>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sindikatsiyalashtirilgan kreditlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sindisyalyalashtirilgan kreditlarni ahamiyati, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishini va buning natijasida ish bilan bandlik darajalari yaxshilanishi ilmiy asoslangan.

O'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditning amaliy ahamiyati va bu borada olib borilayotgan islohotlarning ilmiy-nazariy ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sindikatlashtirilgan kredit, iqtisodiyot, islohot, moliya, bank, kreditor.

**INFLUENCE AND PRINCIPLES ON THE DEVELOPMENT OF THE REAL SECTOR
OF THE ECONOMY THROUGH THE FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS
THROUGH SYNDICATED LOANS**

Abstract. In this article, syndicated lending, the importance of syndicated loans in the financing of investment projects, the development of economic sectors and, as a result, the improvement of employment levels are scientifically based. The practical importance of syndicated credit in Uzbekistan and the scientific and theoretical importance of the reforms being carried out in this regard are described.

Keywords: Syndicated credit, economy, reform, finance, banking, lender.

**ВЛИЯНИЕ И ПРИНЦИПЫ НА РАЗВИТИЕ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА
ЭКОНОМИКИ ПОСРЕДСТВОМ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ
ПРОЕКТОВ ПОСРЕДСТВОМ СИНДИЦИРОВАННЫХ КРЕДИТОВ**

Аннотация. В данной статье научно обосновано синдцированное кредитование, значение синдцированных кредитов в финансировании инвестиционных проектов, развитии отраслей экономики и, как следствие, повышении уровня занятости. Описано практическое значение синдцированного кредита в Узбекистане и научно-теоретическое значение реформ, проводимых в этом направлении.

Ключевые слова: Синдцированный кредит, экономика, реформа, финансы, банк, кредитор.

Sinditsiyalashtirilgan kreditlash boshqa kreditlar singari iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi.

Savdo kreditlari, loyihaviy moliyalash, oddiy kreditlar (umumiyl ehtiyoj uchun), lizing, kredit liniyalari va akkreditivlar ham sindikatlanishi mumkin. Yana bir bor ta’kidlash lozim, bu tartibdagi kreditlashda oddiy kreditlashdan farqli o‘laroq bir nechta kreditor ishtirok etadi. Va ushbu kreditlash turi orqali qarz oluvchilar o‘zлari uchun juda muhim bo‘lgan yirik miqsordagi kreditlarni olishga muvaffaq bo‘lishadi. Eslatib o‘tish joizki, hech qaysi bank alohidagushbu summada va riskda kredit berishni xohlamas edi. Fikrimizning yorqin dalili sifatida Yevropa sindikatlash bozorida ro‘y bergen Fransuz neft kompaniyasi "Elf Aquitaine" Yevropa sindikatlash bozorvda rekord summa bo‘lgan 18 mlrd dollarni jalb qilishga muvaffaq bo‘ldi.

Boshqa kreditlar singari sinditsiyalashtirilgan kreditlar ham ta’minlangan va ta’minlanmagan bo‘ladi. Birinchi holatda qarz oluvchi likvididi garov obektlari yoki hukumat kafolatlardan garov sifatida foydalanishi mumkin. Bunga yana hurmatga sazovor bo‘lgan yirik kompaniyalar kafolati yoki garov obektlarini ham misol qilishimiz mumkin. Ta’minlangan kredit hajmi kredit oluvchining ustav kapitali yoki aylanma mablag‘laridan oshib ketishi mumkin, lekin kredit riski bunga bog‘liq emas, chunki bu yerda ta’minlanganlik sifatida garov obekti yoki kafolat qaraladi.

Ta’minlanmagan sindikatlashtirilgan kredit esa, ta’minlangan sindikatlashgan kreditdan butunlay farq qiladi. Bunda kredit riski to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz oluvchining faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu tartibdagi kreditlar faqatgina yuqori reytingga ega bo‘lgan kompaniyalargagina beriladi. Kredit berishda alohida ishtirokchi bank umumiy summada arzimas ulushga ega bo‘lishi mumkin. Shu bois ham, ushbu ishtirokchi bank uchun risk unchalik yuqori emas.

Hozirgi kunda investitsiya loyihamalarini moliyalashtirishning yangi usuli, sinditsirlashtirilgan kreditlash (sindikatga uyushgan bir necha kreditorlarning kreditlari majmui) paydo bo‘ldi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu so‘zning aniq atamasi yo‘qligi sababli, ko‘pchilik hollarda moliyalashtirishning bu turini sinditsiyalashtirilgan qredit deb ham ataladi.

Sindikatlashmoq, sindikat tuzib birlashmoq ma’nosini bildirib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida yirik investitsiya loyihamalarini bирgalikda moliyalashtirishni tashkil etish usullaridan, birini anglatadi. Investitsiya loyihamalarini moliyalashtirishsa sinditsiyalashtirilgan kreditning asosiy xususiyati shunday iboratki, bunda bir necha kreditorlarning mavjudligi, moliyalashtirish uchun berilgan kredit summasi va u bilan bog‘liq risklarning ishtiroki kreditorlar (banklar) o‘rtasida taqsimlanishidadir¹.

¹ Karimov I.G. Iqtisodiyintegratsiyalashuv sharoitida investitsiyalar faoliyatshshng moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. -T.: "G‘ap xa (yexpaloDualap" 2007

Investitsiya loyihalarni moliyalashtirishda sinditsiyalashtirilishi mumkin bulgan kreditlarga loyihaviy moliyalashtirish ham kiradi. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditni qaygarishning manbai bo‘lib, loyihani amalga oshirish natijasida olingan foyda hisoblanadi.

Invesitsiya loyihalarini uzoq muddatli moliyalashgirishda ko‘pchilik loyihani moliyalashtirishning sindikat kreditlari shakliga zarurat sezmoqda. Bunda kredit bitimi shartlarini tashabbuskor bank o‘rnatadi va u boshqa banklarni bu loyihani moliyalashtirishda ishtirok etishga taklif qiladi.

Sindikatlashgan kredit bo‘yicha foiz summasi qoidaga ko‘ra suzib yuruvchi stavkada hisoblanadi va baza qilib esa LIBOR - Londondagi banklararo kreditlar bo‘yicha foiz stavka) stavkasini olishadi va unga bank marjasи qo‘shiladi.

Investitsiya loyihasini amalga oshirish (realizatsiya qilish) nuqtai nazaridan moliyalashtirish mudsatini va ob’ektni qurish (yaratish) vaqtini kelishib olish muhimdir. Obektni ishlab chiqarish quvvatlariga yetkazish va ishlash mudsatining amalga oshirilishi investitsiya loyihasini moliyalashtirish vaqtini (muddati) shakllantiradi.

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Yevropa banklari tomonidan qo‘llag‘shladigan kreditlashtirishning maksimal mudsati 10-15 yilni tashkil qiladi. AQShda esa, bu muddat kamroq 7-12 yil. Agar loyihani moliyalashtirish mudsati yetarlicha bo‘lmasa, u holda moliyalash tarkibini kreditlashning real imkoniyatlariga o‘zgartiriladi.

Shuningdek, alohida banklar ham kafil bo‘lib chiqishlari mumkin. Bunday holat xalqaro qredit tashkilotlari yoki eksport-import kreditlarini sug‘urtalovchi milliy agentliklar tomonidan loyiha moliyalashtirilganda ko‘proq yuz beradi. Bunda sindikat-ishtirokchi banklar kreditor foydasiga akkreditiv ochishlari yoki kafolat berishlari mumkin. Unda qarz oluvchi moliyalashni kamroq risk (xatar)lar bilan oladi, ya’ni kreditlar riski tijorat bankiga o‘tadi.

Bungi kunda investitsion loyihalarni sindikatsiyalashgan kreditlash orqali iqtisodiyotning real segori rivojiga ijobji ta’sir etganligi sababli u muhim rol o‘ynashi mumkin. Shu bois, investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaygirishga yoki uni yangilashga, ya’ni real kapitalni oshirishga sarflangan resurslar hisoblanib, mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish darajalarini ta’minlovchi asosiy hal qiluvchi vositadir.

Milliy iqtisodiyotda investitsion loyiha har doim ham yuqorida sanab o‘tilgan barcha mezonlarga mos kelavermaydi. Yuqoridagi mezonlar sinditsiyali moliyalashtirishni muvaffaqiyatli kechishi uchun beshta asosiy tamoyillarni belgilab olishni taqozo etadi.

- investitsion loyihalarning hayotiyligi;
- loyihani amalga oshirishda tajribali, kuchli va vijdonli hamkorlarning ishtiroki;
- loyiha barcha risklarining hisobi va taqsimoti;

- barcha huquqiy jihatlarni tartibga solib borish;
- loyihani amalga oshirishda sifatli biznes-rejaning mavjudligi vy aniq muvofiqlashgan harakat rejalarini ishlab chiqish.

Invistitsion loyihalarni sindikatsiyalangan kreditlash mexanizmidan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishda Jahon tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan muvaffaqiyatli foydalanmoqda.

Sindikatlashmoq, sindikat tuzib birlashmoq ma'nosini bildirib, investitsiyalarni moliyalashtirish tizimida yirik investitsiya loyihalarini birgaliqda moliyalashtirishni tashkil etish usullari ochib berilgan. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sinditsiyalashtirilgan kreditning asosiy xususiyati shunday iboratki, bunda bir necha kreditorlarning mavjudligi, moliyalashtirish uchun berilgan kredit summasi va u bilan bog'liq risklarning ishtiropi kreditorlar (banklar) o'rtaida taqsimlanishidadir.

Shuningdek, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda sinditsiyalashtirilgan kreditlarni ahamiyati iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishini va buning natijasida ish bilan bandlik darajalari yaxshilanishini ko'rshimiz mumkin.

Sinditsiyalangan kreditlarda ulushlarning aksariyat qismi ikkilamchi bozorda muomalada bo'ladi. Loan Market Association (LMA) va Loan Syndications and Trading Association (LSTA) - sinditsiyalangan kreditlar ikkilamchi bozorining faoliyatini tartibga solishga mo'ljallangan maxsus tashkil etilgan birlashmalar hisoblanadi.

Ikkilamchi bozorning rivojlanishi bir kreditordan ikkinchi kreditor zimmasiga kredit riskini yuklash imkoniyatini beruvchi «ko'chira oladigan» kreditlarning ulushi sifatida baholash mumkin.

Eng rivojlangan ikkilamchi bozordan biri Amerika bozori hisoblanadi: «ko'chira oladigan» kreditlarning umumiyligi sinditsiyalangan kreditlar sonidagi ulushi bu davlatda qariyb 25 %ni tashkil etadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida 2021 yilda jaxon miqyosida sindikatlashtirilgan kreditlarning umumiyligi hajmi 14,71 foizga kamayib, 4,4 trln. AQSH dollarini, bitimlarning umumiyligi esa 9,11 foizga kamayib, 8164 ta bitimni tashkil qildi. Jami Global Bridge kreditlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 10,51% ga kamayib, 293,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi, bitimlarning umumiyligi esa 11,88% ga kamayib, 141 taga yetdi.

BofA Securities kompaniyasi 2019 moliya yilining yakunlari bo'yicha bozor ulushining 9,63 foizini egallagan holda sindikatlashtirilgan kreditlar bozorining eng yaxshi konsorsium tashkilotchisi bo'ldi. Bank ushbu davrda 1270 ta bitimda vositachi vazifasini bajargan. Ikkinchi va uchinchi o'rnlarni bozor ulushining mos ravishda 9,17% va 5,70% bilan JP Morgan va Citi egallahshdi.

Sinditsiyalashtirilgan kreditlar bo'yicha dunyoning yetakchi kompaniyalar²

| Kompaniyalar | 2020 | | | 2021y | | | |
|------------------------------------|---------------|-------------------|---------------------------|-------------------|------------------------|-------------------|---------------|
| | Oldingi o'rni | Bozorda gi ulushi | Bozorda gi ulush o'zg.%da | Bozor -dagi o'rni | Bozordagi ulushi (%da) | Hajmi (mln. dol.) | Bitimlar soni |
| BofA Securities | 2 | 9,299 | 0,331 | 1 | 9,630 | 366,692 | 1,270 |
| JP Morgan | 1 | 10,232 | -1,062 | 2 | 9,174 | 349,315 | 1,214 |
| Citi | 3 | 5,832 | -0,136 | 3 | 5,696 | 216,907 | 747 |
| Wells Fargo | 4 | 5,394 | 0,271 | 4 | 5,665 | 215,725 | 824 |
| Mitsubishi UFJ Financial Group Inc | 9 | 3,062 | 0,559 | 5 | 3,621 | 137,884 | 453 |
| Barclays | 6 | 3,316 | 0,243 | 6 | 3,559 | 135,535 | 514 |
| BNP Paribas | 8 | 3,075 | 0,145 | 7 | 3,220 | 122,624 | 549 |
| RBC Capital Markets | 7 | 3,273 | -0,543 | 8 | 2,730 | 103,944 | 447 |
| Morgan Stanley | 15 | 1,935 | 0,792 | 9 | 2,727 | 103,828 | 289 |
| HSBC | 11 | 2,602 | 0,064 | 10 | 2,666 | 101,517 | 501 |
| Jami | | 100 % | | | 100% | 3807842 | 6,616 |

Sinditsiyalangan kreditlar ikkilamchi bozorida ikkita turdag'i bitimni ajratib olish mumkin: huquqlarni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga berish va ishtirok etish. Bugungi kunda Respublikamizda sinditsiyalashtirilgan kreditlash bo'yicha xuquqiy-me'yoriy bazaning yetishmasligi xalqaro sindikatli bozordan kreditlarni jalb etishni sust darajada bo'lishiga sababchi bo'lgan muhim omillardan biridir.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilib, ko'plab yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilishi belgilangan. Lekin, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindikatli kreditlardan foydalanish jahon amaliyotida muvvafaqiyatli moliyalashtirish usullaridan sanalsa-da, O'zbekistonda kreditlashning bu usulidan foydalanish o'ta zaif ahvolda bo'lib, bunga bir qator omillar ta'sir etmoqda.

Xususan, banklarimizda uzoq muddatli barqaror reurslarning yetishmasligi, banklarning xalqaro sindikatli bozorida ishtirok etmasligi va tajribalarining yetishmasligi, me'yoriy huquqiy hujjatlarning to'laqonli emasligi, risklarni samarali boshqarish mexanizmining zaifligi kabi muammolar shular jumlasidandir.

² Bloomberg Global Syndicated Loans League Tables FY 2019. <https://www.bloomberg.com/press-releases/2020-01-02/bloomberg-global-syndicated-loans-league-tables-fy-2019>

Sindikatli kreditlar qat'iy ravishda muayyan maqsad uchun beriladi, kreditdan boshqa maqsadlar uchun foydalanish esa kreditning maqsadga yo'naltirilganlik tamoyiliga zid bo'ladi va kredit shartnomasida belgilangan muayyan choralarini qo'llashni keltiradi, masalan, asosiy qarzni va hisoblangan foizlarni summasini to'lab berish sharti bilan shartnomaga bekor qilinishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan umumiyligi tamoyillardan tashqari faqatgina Sindikatli kreditlashga taalluqli bo'lgan tamoyillarni ham ajratib olish mumkin, ammo ular kreditlash chizmasining tarkiblanishiga qarab muayyan darajada tebranishi mumkin.

Aytish joizki, Sindikatli kreditlashning qo'shimcha imkoniyatlarini ham alohida ko'rsatish mumkin:

- kreditni muayyan transhlar orqali qarz oluvchi tomonidan belgilangan bosqichlarga muvofiq tarzda berish;
- qarz oluvchining moliyaviy kirimini hisobga oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarzdorlikni to'lab berish jadvalini egiluvchan holda tuzish;
- muddatdan oldin qoplash imkoniyati.

| Sindikatli kreditlashning umumiyligi tamoyillar | | |
|---|--|---|
| 1 | Kreditorlar majburiyatlarining alohidaligi | Har bir bank kredit shartnomasiga ko'ra belgilangan miqdorda muayyan kredit berishi shart |
| 2 | Agentning ishtiroki. | Sindikatli kreditlarda boshqarishni osonlashtirish uchun banklardan biri barcha sinditsiyalash jarayonini tashkil etuvchi agentni tayinlaydi. |
| 3 | Sindikatda demokratiya. | Sindikatda eng muhim masalalar banklarning ko'pchiligi bilan hal etiladi (masalan, defolt sharoitida kreditlarni muddatidan oldin qaytarib berish talabi). |
| 4 | Mutanosib taqsimlash tamoyili. | Mazkur tamoyilning mohiyati shundan iboratki, sindikat a'zolari tomonidan hisobga olish, sud ishlari va boshqa taqsimot natijasida olingan har qanday to'lovlar sindikat ishtirokchilari o'rtaida mutanosib ravishda taqsimlanishi lozim. |
| 5 | Kreditorning huquqini berish imkoniyati | Sindikatli kredit shunday shakllanadiki, kreditorlar o'z ulushini ikkilamchi bozorga qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. |

Sindikatli kreditlarni tasniflashning turli belgilari mavjud. Sindikatli kreditlar vaqt nuqtai nazardan mavjud bo‘lish davomiyligiga ko‘ra vaqtinchalik (odatda u yoki bu yirik bitimni moliyalashtirish uchun) va doimo faoliyat ko‘rsatuvchi (qoidaga ko‘ra, valyuta bozori va sarmoyalar bozorida operatsiyalarni amalgalash oshirish) kreditlarga bo‘linadi. Bizga ma’lumki, sindikatli kreditlarni ta’minlanganligiga ko‘ra ta’minlangan va ta’minlanmagan kreditlarga bo‘linadi. Agarda kredit ta’minlangan bo‘lsa, qarz oluvchiga likvid qarz yoki kafolat berilishi lozim, ta’minlanmagan kredit esa faqatgina qat’iy ishonchlilik talablariga javob beruvchi yuqori reytingga ega kompaniyalarga berilishi mumkin. Sindikatli kreditlar ochiq (barcha istak bildirgan banklar taklif etiladi) va klubli (muayyan banklarning cheklangan doirasi) kreditlarga bo‘linadi.

Sindikatli kreditlar bozori qarz oluvchining talablariga mos kelishi uchun ko‘plab moliyaviy dastaklar

| Sindikatli kreditlar bozori qarz oluvchining talablariga mos kelishi uchun ko‘plab moliyaviy dastaklardan foydalanadi: | |
|--|---|
| 1) Muddatli qarz | summani qarz olish bo‘lib, u muayyan sanagacha to‘liq to‘lanishi lozim. |
| 2) Revolver qarzi | muayyan summaga va muayyan muddatga olingan qarz hisoblanadi, biroq mazkur holatda qarz oluvchi xohishga ko‘ra butun qarz summasini yoki uning bir qismini olish, qaytarish va yana olish huquqini oladi. |
| 3) Zaxira kredit liniyasi — | revolver qarzning bir turi bo‘lib, uning asosiy farqi shundan iboratki, qarz oluvchi kreditdan jamg‘arish uchun foydalanmasdan, balki uni zaxira sifatida qoldiradi. |

Shuni to‘g‘ri tushunish kerakki, Sindikatli tarzda chiqarilgan kredit banklar qarz oluvchiga kredit berish to‘g‘risidagi ikki tomonlama shartnama doirasida kelishilgan tarkibi va majburiyatlar to‘plamidan keskin farq qiladi. Sindikatli kreditlashning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundan iboratki, ssuda sindikat, ya’ni kreditni joylashtirish uchun birlashgan turli davlatlardagi banklar guruhini o‘zida namoyon etuvchi kreditorlar tomonidan beriladi.

REFERENCES

1. Финансово-кредитный энциклопедический словарь, под редакцией коллектива авторов под общей редакцией д.э.н. проф.А.Г.Грязновой, М.: “Финансы и статистика”, 2002, 886 с.

2. C. Pass, D. Lowes, A. Pendleton, L. Chadwick. Collins Dictionary of Business- Harper Collins Publishers, 3 rd Edition, 2000.- P.430
3. Armstrong J. The syndicated Loan Market: Dewelopments is in the North American Context// Bank of Kanada Working Paper 2003-15, June 2003.
4. Банковское дело. Под ред. доктора экономических наук, профессора А.М.Тавасиева,. – М.: 2001. стр. 605.
5. Довгялло М.В., Синдицированное кредитование, -М.: Фонд “Институт экономики города”, 2000-с.6.
6. Д.Ғ.Фозибеков Инвестицияларни молиялаштириш масалалари .- Т:Молия нашриёти,2003 йил 332 бет
7. Н.Ғ.Каримов. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари.Т.:Фан ва технология нашриёти, 2007 йил 137 бет.